



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 1-iyul

VII-9-66-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

O‘zLiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, Farg‘ona tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tomonidan 2025-yilning 1-choragi davomida yoshlarga oid Davlat siyosatini amalga oshirilishi xususida “Yoshlarga oid Davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta’minlash holati to‘g‘risida

Bugungi kunda tumanimizda jami 67 ta ta’lim muassasasi faoliyat olib bormoqda, shundan, 63 tasi (shundan, 1 tasi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab internati 2-IMI) umumta’lim maktablari, 1 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabi, 1 ta "Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Farg‘ona tumani ixtisoslashtirilgan maktabi" hamda 2 ta “LE CRAYoN” va “SMART KIDS” Nodavlat ta’lim muassasasi faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda maktablarda 3 ta tilda (*o‘zbek, rus, qirg‘iz tili*) ta’lim olib boriladi. Shundan 36 360 nafar o‘quvchi o‘zbek tilida, 343 nafar o‘quvchi rus tilida, 161 nafari qirg‘iz tilida ta’lim oladi.

Ta’lim olishning navbatliligi. Tumandagi 63 ta maktabning 37 tasi (58 %) da o‘qish jarayoni 2 smenada tashkil etilgan. Shuningdek, navbatlilik koeffitsienti 0,5 dan past bo‘lgan maktablar 3 ta (*46, 50, 60-maktablar*), 2 ta maktabda navbatlilik koeffitsienti 2 dan yuqori (*3, 4-maktablar*). So‘nggi 7 yilda maktablarda 4450 mingta yangi o‘quvchi o‘rni yaratildi. Natijada, 3 (*26, 28, 55-maktablar*) dan yuqori koeffitsentda faoliyat yuritayotgan 9 ta maktabda o‘quv quvvatlari oshirildi. Tumandagi mavjud 63 ta maktablarda bugungi kun holatiga 6 ta umumiyl o‘rta ta’lim maktablari direktori lavozimlari bo‘sh (vakant) hisoblanadi. Amalda faoliyat yuritayotgan maktab direktorlaridan 7 nafari menejerlik sertifikatiga ega.

2025 yil joriy holatiga tuman bo‘yicha menejerlik sertifikatiga ega bo‘lgan nomzodlar soni 15 nafar bo‘lib, 8 nafari esa maktab direktori lavozimlariga zahiraga olingan.

2024 yil hamda 2025 yilning 1-choragi yakuni bo‘yicha viloyat maktabgacha va maktab ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan raxbar hamda pedagog-xodimlarning 2 nafari “Xalq ta’limi fidoiysi”, 4 nafari “Xalq ta’limi a’lochisi” nishoni bilan taqdirlangan.

2025 yilda malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagoglar 16,0 foizni (*413 nafar*), birinchi malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagoglar 25 foizni (*635 nafar*), ikkinchi toifali o‘qituvchilar 29 foizni (*719 nafar*), mutaxassis (toifasiz) o‘qituvchilar ulushi esa 44,0 foizni (*1 291 nafar*) tashkil etgan.

Umumta’lim maktablarda faoliyat yuritayotgan 318 nafar xorijiy til fani o‘qituvchilaridan 207 nafari, 214 nafar rus tili fani o‘qituvchilaridan 84 nafari, geografiya,

tarix, ona tili va informatika fanlaridan 69 nafar o‘qituvchilar milliy hamda xalqaro sertifikatga ega bo‘ldilar.

Shu bilan birga 36 864 nafar o‘quvchilarning 213 nafari milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritdilar.

O‘z ustida ishlagan chet tili, matematika, biologiya fani o‘qituvchilari uchun oylik ish xaqiga 50 foizdan 150 foizgacha ustama olish imkoniyati yaratildi.

Ya’ni tegishli sertifikatlari mavjud oliy malaka toifali o‘qituvchilar bugungi kunda 11,6 mln.so‘mgacha oylik olayotgan bo‘lsa, sertifikatga ega bo‘lmagan oliy malaka toifali o‘qituvchilar 5,9 mln.so‘mdan ish haqi olishmoqda.

Bundan tashqari tuman Milliy kengashi tavsiyasiga ko‘ra, Vazir jamg‘armasi tanlovida yuqori natijaga erishgan 2 nafar pedagoglar ilk marotaba Vazir jamg‘armasidan oylik ish haqiga qo‘shimcha har oyda 5,3 mln.so‘mdan ustama olishmoqda.

2021-yilda xorijiy til fani o‘qituvchilarining 98 nafarida xorijiy til bilish daraja sertifikati mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 104 nafar pedagog xalqaro va milliy til bilish sertifikatlariga ega bo‘ldilar.

2025-yilda ushbu ko‘rsatgich 318 nafar xorijiy til o‘qituvchilaridan 207 nafari sertifikatga ega bo‘ldi.

Umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 2905 nafar o‘qituvchilar bugungi kunda o‘rtacha oylik ish haqi 3 mln.so‘mni tashkil etsa, 1002 nafardan ortiq o‘qituvchilar 3 mln.dan - 5 mln. so‘mgacha, 885 nafardan ortiq o‘qituvchilar 5 mln.dan - 8 mln. so‘mgacha, 220 nafardanortiq o‘qituvchilar 8 mln.dan - 10 mln. so‘mgacha oylik ish xaqi olayotgan bo‘lsa, 100 nafar o‘qituvchilar ish xaqi 10 mln. so‘mdan ortiq ya’ni 1000 \$ ni tashkil etmoqda.

2024-2025 o‘quv yilida 1-sinfga jami 3815 nafar bolalar uchun 12 nomdag‘i o‘quv qurollaridan iborat “Prezident sovg‘alari” tumandagi barcha ta’lim muassasalariga yetkazib berildi.

2024-2025 o‘quv yiliga tuman ta’lim muassasalari uchun buyurtma asosida 516 ming 488 dona 1-11 sinflar uchun darsliklar joylarga yetkazib berildi.

2024-2025 o‘quv yilida ta’lim muassasalarida 2 581 nafar, (*shundan 1 488 nafari qizlar*) 11-sinf bitiruvchilari ta’lim olmoqda.

Ushbu bitiruvchilardan ta’limni keyingi bosqichini qaerda davom ettirishini aniqlash yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazilgan. O‘tkazilgan so‘rovnomada bitiruvchilarning 2 231 nafari oliy ta’lim muassasalariga, 176 nafari kollej va texnikumlarga, 158 nafari kasbhunarga tayyorlash markazlarida o‘qish istagi borligi aniqlandi.

2024-2025 o‘quv yili davomida bitiruvchilarni 1 291 nafar bitiruvchilarni oliy ta’limga kirishi orqali ko‘rsatkichni oliy ta’limga kirish ko‘rsatgichini 50 % ga chiqarish rejalashtirilgan.

Shuningdek, OTMga kira olmagan bitiruvchilarning profesional ta’limga qamrovini 20 % ga oshirish, 30 % o‘quvchilarni esa shartnoma asosida mavsumiy yer berish, ishga joylash hamda o‘zini-o‘zi band qilish orqali bandliklarini ta’minlash re’jashtirilgan.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ko‘rsatmasiga binoan oldingi o‘quv yilidan boshlab ilk marotaba tumandagi 63 ta maktabning ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi ko‘rsatkichiga qarab qizil,sariq va yashil toifalarga ajratib oldik.

Tumandagi 42 ta sariq rang bilan tasniflangan maktablarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilab olganmiz, ushbu ishlarni amalga oshirib sariq rang bilan tasniflangan maktablarni Yashil rang toifasiga o‘tkazishga erishamiz.

Yaponiya ta’lim tajribasidan kelib chiqib, tumandagi 63–sonli maktabni tajriba sinov tariqasida tanlab oldik. Ushbu maktablar Yapon tajribasi asosida 100 mln.so‘m mablag‘ hisobiga to‘liq jihozlandi.

Ushbu maktabda yangi o‘quv yilidan boshlab kunlik mashg‘ulotlar odob darslari bilan boshlanishi belgilab olindi. Bolalarga yoshlikdan mehnatga chiniqtirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlab borish bo‘yicha har bir maktabning o‘ziga xos tabiatidan kelib chiqib, rejalar ishlab chiqilmoqda.

Barcha maktablarda oila-mahalla-ta’lim muassasi-hokimlik hamkorligini kuchaytirish, ushbu to‘rt taraf ham o‘zlariga majburiyat va javobgarlikni zimmasiga olish maqsadida “hamkorlik shartnomasi” ishlab chiqildi. Ota-onalar va boshqa mas’ullar ishtirokida muhokama qilinib, ushbu to‘rt tomonlama shartnomalar to‘liq imzolandi.

O‘zLiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, Farg‘ona tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tomonidan 2025-yilning 1-choragi davomida yoshlarga oid Davlat siyosatini amalga oshirilishi xususida “Yoshlarga oid Davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta’minalash holati to‘g‘risidagi Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i Sh.Yuldashevning hisoboti muhokama qilinib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zLiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, Farg‘ona tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tomonidan 2025-yilning 1-choragi davomida yoshlarga oid Davlat siyosatini amalga oshirilishi xususida “Yoshlarga oid Davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta’minalash holati to‘g‘risidagi Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i Sh.Yuldashevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari, mas’ul korxona, tashkilot va muassasa rahbarlariga:

- yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularni qiynayotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etishni ustuvor vazifa sifatida belgilab olish;

- yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish borasida tegishli choralarни ko‘rish;

- yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish yuzasidan zaruriy chora-tadbirlar rejasiga va dasturlarni ishlab chiqish;

- yoshlar o‘rtasida zamonaviy kasblar va kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish yuzasidan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;

- tadbirkorlikka qiziquvchi yoshlarni aniqlash va ularga o‘z faoliyatlarini boshlashlari uchun amaliy yordamlarni ko‘rsatish;

- yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida madaniy tadbirlar sonini oshirish;

- tumanda yoshlarni sportga jalb qilish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish vazifasi topshirilishi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (Ergashev) tumanda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda aholi kayfiyatini ko‘tarish maqsadida o‘tkazilayotgan madaniy-ommaviy tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlar va OA Vlarida keng yoritib borish;

- tumandagi mavjud sport to‘garaklari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aholiga yetkazish choralarini ko‘rish;

- tumandagi sportchilarimiz tomonidagi Respublika va xalqaro musobaqlarda qo‘lga kiritilayotgan natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keng yoritib borish vazifasi topshirilishi inobatga olinsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

Tumanda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasidagi ishlar va jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish holati ustidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilishi inobatga olinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashinin Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Dadajonova hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiyishlar bo‘yicha o‘rinbosari I.Toshpo‘latovlar zimmasiga yuklansin

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV
ILXOMJON
AKBARALIYEVICH